

## BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARINI O'QITISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

**Xojamatova Mohira Maqsudovna**

**Jumaniyozova Munira Komilovna**

*Xorazm viloyati Gurlan tumani*

*31-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabining*

*Boshlang'ich sinf o'qituvchilari*

**Annotatsiya:** *Ona tili va o'qish savodxonligi fani boshlang'ich sinf o'quvchilarining og'zaki va yozma savodxonligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan darslar o'z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko'ra ta'lim tizimida alohida o'rin tutadi. Maqola ona tili va o'qish savodxonligi fanini o'qitish va unga qo'yiladigan talablar haqida yozilgan. Kalit so'zlar: pedagogik texnologiya, bo'g'inlab o'qish, ifodali o'qish, matn ustida ishlash, metodik mahorat, ongli o'qish, milliy qadriyatlar.*

*"Agar mendan sizni nima qiynaydi deb so'rasangiz, farzandlarimizning ta'lim va tarbiyasi deb javob beraman".*

**Sh. M. Mirziyoyev**

Boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan ona tili va o'qish savodxonligi fani adabiyot fanining tarkibiy qismi hisoblanadi. Ona tili va O'qish savodxonligi darslarini davlat talablari asosida hayotiy tajribalarga, kuzatishlarga suyanib hayotga bog'lab o'tilishi uning o'quvchilarga ta'sirchanligi va ongli idrok etishlarini ta'minlaydi. boshlang'ich sinflarda o'qish darslari yuqori sinflar singari o'zbek adabiyoti, tarix, geografiya, biologiya va boshqa fanlarni o'zlashtirish uchun dastlabki asosni yaratadi. Shuning uchun boshlang'ich sinflardagi ona tili va o'qish savodxonligi darslariga jiddiy e'tibor berish talab qilinadi. 1-sinfda o'quvchilar matnni ongli to'g'ri va bo'g'inlab o'qishni o'rganadilar. Buni faqat ona tili va o'qish savodxonligi darslaridagina emas, balki barcha predmet fanlar yuzasidan ham o'tkaziladigan darslarda va maktabdan tashqari uyushtiriladigan mashg'ulotlar jarayonida ham kuzatib borishga alohida ahamiyat berish zarur. 2-sinf o'quvchilarda so'zlarni butunligicha o'qish malakasi shakllanadi. O'qishning to'g'ri ifodali bo'lishiga erishiladi. O'qish sur'ati tezlashadi. bu sinfda o'quvchilar matnning ayrim qismlarini, qisqa hikoyalarni ichida mustaqil o'qishga o'tadilar. Matn ustida ishlash esa murakkablashib boradi. 3-sinfda so'zlarni butunligicha to'la o'qish ko'nikmasi shakllanadi. So'zlarni to'g'ri tanlashga, gap tuzishidagi so'zlarning bir-biriga bog'lanishidan to'g'ri foydalanish talab etiladi. 4-sinfda o'quvchilar so'zlarni bo'g'inlamay o'qishlari, matnni tez, to'g'ri, ongli o'qiy olishlari kerak. Bu sinfda o'quvchilarni bo'g'inlab o'qishga yo'l qo'ymaslik kerak. bolalar o'qilgan matn mazmunini mustaqil ravishda qayta hikoya qilishlari, matn yuzasidan sodda reja tuza olishlari, uning asosiy mazmunini ajrata olishlari zarur. Boshlang'ich sinflar ta'lim tizimining poydevoridir. Boshlang'ich ta'lim davlat ta'lim standarti ta'lim mazmuni negizini,

o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma, malakalarni o'quvchilar tayyorgarlik darajasiga qo'yilgan talablarni o'zida ifodalaydi. Shunday ekan boshlang'ich sinf o'quvchilarini DTS talablari asosida ta'lim berish, tarbiyalash o'qituvchilarni "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" talablari asosida yetuk mutaxassis qilib tayyorlash bugungi kunning dolzarb vazifasi hisoblanadi. Shunday ekan 1-sinfqa qadam qo'ygan o'quvchi shaxsini shakllantirish, uni muvaffaqiyatli o'qib ketishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish boshlang'ich sinf o'qituvchisidan kasbiy hamda metodik mahorat talab etadi. bu kabi maqsadlar asnosida o'quvchini ta'lim jarayoniga olib kirish, ta'lim-tarbiya jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llash orqali kafolatlangan ta'lim natijasiga erishish ta'minlanadi.

Boshlang'ich sinflarning o'qish darslari o'z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko'ra ta'lim tizimida alohida o'rin tutadi. Negaki uning zaminida savodxonlik va axloqiy-ta'limiy tarbiyaviy asoslari turadi. Shuning uchun ham boshqa narsalar ta'limini o'qish va ta'limsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. O'quvchi matnni to'g'ri, tez, tushunib o'qish, mazmunini o'zlashtirish bilan ilk bor ona tili va o'qish savodxonligi darslarida yuzlashadi. Aynan o'qish ta'limida insonning, avvalo, o'zligini, qolaversa olamni anglashga bo'lgan intilishlariga turtki beriladi. Shu maqsadda "Ona tili va o'qish savodxonligi kitobi" darsliklariga ona tabiat, atrofimizni o'rab turgan olam, Vatanimiz tarixi va bugungi qiyofasi, kattalar va bolalar hayoti, mehnatsevarlik, istiqlool va milliy-ma'naviy qadriyatlar kabi mavzular bo'yicha atroflicha tushunchalar berishga mo'ljallangan badiiy, axloqiy-ta'limiy asarlar kiritilgan. Ona tili va o'qish savodxonligi darslari uchun tanlangan mavzular o'quvchilarga kundalik hayot, mustaqillikni mustahkamlash va insoniy munosabatlar bo'yicha ham bilim va tarbiya berishni ko'zda tutadi. Bular ichida istiqlool, Vatan, ma'naviyat va tabiat haqidagi mavzular alohida ajralib turadi. Ulardan ko'zlangan maqsad o'zlikni anglash, istiqlool, Vatan va tabiat bilan bog'liq tuyg'ularni uyg'otishdir. O'quvchilar darsliklar yordamida o'zlashtiradigan bilim, ko'nikma va malakalarining kelajak hayotda zarur bo'lishini tushunib yetishlariga erishish o'qituvchilar oldidagi muhim vazifalardandir. Umuman, "Ona tili va o'qish savodxonligi kitobi" darsliklaridagi barcha mavzular o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish bilan birga, ularning lug'atini boyitishga, og'zaki va yozma nutqini to'g'ri shakllantirish va nutq madaniyatini o'stirishga ham qaratiladi. Inson hayotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan o'qish faoliyati barcha narsalarni darslarida amalga oshiradi. Lekin o'qishga o'rgatish yo'l-yo'riqlarini o'qish metodikasi ishlab chiqadi.

Ona tili va o'qish savodxonligi darslariga qo'yiladigan didaktik vazifalar quyidagilardan iborat: 1. O'quvchilarda yaxshi o'qish sifatlari: to'g'ri, tez, ongli, ifodali o'qish malakalarini shakllantirish. 2. O'quvchilarni kitobdan foydalanishga, undan kerakli bilimlarni olishga o'rgatish, kitobga muhabbat uyg'otish; ularning oddiy kutubxonadan chuqur mulohaza yurituvchi, ijodkor kitobxondarajasiga ko'tarish. 3. O'quvchilarning atrof-muhit haqidagi bilimlarini kengaytirish va boyitish hamda ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirish. 4. O'quvchilarni axloqiy, estetik jihatdan yetuk va mehnatga muhabbat ruhida tarbiyalash. 5. O'quvchilarning bog'lanishli nutqini va adabiy-estetik tafakkurini o'stirish. 6.

O'quvchilarning hayot olamin boyitish. 7. Elementlar adabiy tasavvurlarini shakllantirish. Shuni unutmaslik kerakki, har bir ta'limiy vazifani bajarishning aniq va ilmiy metodik usullari mavjud bo'lib, ular zamonaviy o'qitish usullari bilan boyitib borilmoqda. Bu vazifalar boshqalar bilan o'zaro bo'liq holda va sinfdan tashqari o'qish mash'ulotlari jarayonida hal qilinadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. "O'qish madaniyatini oshirish" ilmiy-amaliy seminari materiallari. 2018
2. Ona tili va o'qish savodxonligi. 1-qism [Matn]: darslik 2-sinf uchun /K. Mavlonova [va boshq.]. -Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021.
3. Nodira Egamberdiyeva "Ijtimoiy pedagogika" 4. F. Qodirova, Sh. Toshpo'latova, M. A'zamova "Maktabgacha pedagogika" 5. [www.ziyounet.uz](http://www.ziyounet.uz)